

УДК 631.6.626

KANAL VA KOLLEKTORLARDAGI QAMISHLARNI O'RIVCHI  
TAKOMILASHTIRILGAN ISH JIHOZI

*Qo'chqorov Jurat Jalilovich* - "TIQXMMI" MTU  
Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti dotsenti.

*Ochilov Nuriddin Zokirovich* - "TIQXMMI" MTU  
Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti magistranti.

*Ochilov Muhriddinjon Zokir o'g'li* - "TIQXMMI" MTU  
Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti magistranti.

*Orziyev Sardor Samandar o'g'li* - "TIQXMMI" MTU  
Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti tayanch  
doktoranti

**Annotatsiya:** Maqolada Kanal va kollektorlardagi o't o'lanylarni kollektor ichida o'sadigan qamishlarni o'rib oluvchi takomilashtirilgan ish jihoz tavsiya etilgan, tavsiya etilgan ish jihozini qo'lanilishi va mashinalarning asosiy ko'rsatkichlari, haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Aylanish platformasi, xartum, gidrosilindrlar, tirsak, chervyakli reduktor, bog'lovchi flanes, arra, ajratkich, korpus, tutkich, boltli birikma Segmentli apparat, rotor, kollektor, rama, freza, Chervyak, reduktor, gidromotor, ko'p rotorli ish jihizi.

УЛУЧШЕНО РАБОЧЕЕ ОБОРУДОВАНИЕ ДЛЯ УБОРКИ КАМЫША В  
КАНАЛАХ И КОЛЛЕКТОРАХ

**Аннотация:** В статье рекомендовано усовершенствованное устройство для скашивания сорняков в каналах и коллекторах и камыша, растущего внутри коллектора, приведены сведения об использовании рекомендуемого устройства и основные показатели машин.

**Ключевое слово:** Поворотная платформа, шланг, гидроцилиндры, колено, червячный редуктор, соединительный фланец, пила, сепаратор, корпус, рукоятка, болтовое соединение.

IMPROVED WORKING EQUIPMENT FOR HARVESTING REEDS IN  
CHANNELS AND SEWERS.


**Abstract:** The article recommends an improved device for mowing weeds in channels and collectors and reeds growing inside the collector, provides information on the use of the recommended device and the main indicators of the machines.

**Key words:** Turntable, hose, hydraulic cylinders, elbow, worm gear, connecting flange, saw, separator, housing, handle, bolted connection.

Mavjud kollektor ichida o'sadigan qamishlarni o'rib oluvchi mashinalar kollektor otkosidagi o't va qamishlarni o'rib, kollektor ichiga tashlab ketadi va ish hajmini oshishiga sabab bo'ladi shuning uchun ham yangi takomilashtirilgan kollektor ichida o'sadigan qamishlarni o'rib oluvchi mashinaning ishlab chiqishga ehtiyoqch bor. Tavsiya etilgan mashina 1-rasmida ifodalangan. Ish jihozি bir cho'michli ekskovatorning tirsagi o'rniغا o'rnatilib, u o'z o'qi atrofida aylanish imkoniyatiga ega. Unga o'rnatilgan maxsus arra qamishni qirqib, siquvchi qo'lтиqqa yo'naltiradi. Qo'lтиq qamishga to'lgach u siqilib, ko'tariladi va maxsus aravalarga yuklanadi. Ekskavator tirsagi olib qo'yilib, uning o'rniغا maxsus qo'zg'almas metall quvur 4 bilan bog'langan chervyakli reduktor 5 korpusi joylashtirilgan. Chervyakli reduktor gidromotor yordamida harakatga keltiriladi. Reduktorga maxsus o'z o'qi atrofida aylanuvchi val 6 o'rnatilgan. Maxsus valga o'rilgan qamishlarni qamrab oluv-chi moslama 7 qo'zg'aluvchan qilib maxkamlangan. Aylanuvchi valning oxirgi qismiga qo'zg'aluvchan qilib, qamishlarni o'ruchchi arra 9 va uni harakatga keltiruvchi gidromotor 10 o'rnatilgan. Tirsakni burish gidrosilindr 3, ish jihozini burish esa gidrosilindr 8 yordamida amalga oshiriladi.

Ushbu ekskavator yordamida o'rilgan qamishlar maxsus mashinalarga yuklanib, ularni qirqib, maydalovchi korxonaga jo'nataladi. Ulardan chorvochilik va sanoatda foydalanish mumkin.

Qamishlar maxsus uskuna yordamida qirqib, maydalananadi. Maydalangan qamishga shirali moddalar qo'shib, chorva mollari uchun emxashak sifatida ishlatish mumkin.




**1-rasm. Kollektorlardagi qamishlarni o‘rvuchi ekskavator.** *a*-umumiyo ko’rinishi; *b*-qamishni transport vositasiga to’kish jarayoni; *c*-qamishni o’rish jarayoni; *d*-ish jihozini yuqoridan ko’rinishi (qirqimi); 1-aylanish platformasi; 2-xartum; 3,8,12,13-gidrossilindrlar; 4-tirsak; 5-chervyakli reduktor; 6-ish jihozimi

Chorvodan ortgan chiqindi yuvib-tozalanadi va unga kerakli elim miqdori qo’shib, maxsus uskuna yordamida qurilishda ishlatalish uchun maxsulot tayyorlash mumkin.

Kollektordagi qamishlar o'rib olingandan so'ng undagi cho'kindini tozalash ishlari amalga oshiriladi.

Ekskavotorning asosiy tirsagi olinib, uning ىrniga maxsus tirsak yasaladi. Bunda tirsak uzunligining yuqorigi  $\frac{1}{4}$  qismida uzilib, unga flaneç payvandlanadi va unga reduktor 1 ning flanesi 2 boltli birikma orqali ulanadi (2-rasm). Reduktor bir pog'onali uzatish nisbati  $i = 10$  ga teng bo'lgan ىlindirik tishli g'ildiraklardan tashkil topgpn. Uni gidromotor 3 harakatga keltiradi. Reduktor korpusining pastki qismidan chiqqan val 4 tirsakning ikkinchi qismiga ulanadi.



**2-rasm. Tirsakni aylantiriuchi reduktor.**


1-reduktor korpusi; 2-bog'lovchi flanes; 3-gidromotor; 4-val.

Val tirsak bilan birligida  $90^0$  ga reduktoring harakati orqali chap yoki o'ng tomoniga burala oladi.

Bu burchakni chegeralash uchun reduktor korpusining pastki qismiga uchta bir biri  $90^0$  burchak hosil qiluvchi tutkichlar o'rnatilgan, xuddi shunday tutkichlar tirsakning valiga ham yuqoridagi holatda o'rnatilgan va ularning tilchasi o'z o'qi atrofida  $180^0$  ga burilish imkoniyatiga ega. Bu esa qamish o'rurvchi mashinani kollektor qirg'og'ining chap yoki o'ng tomonida turib ishlashida qo'llaniladi.

Tirsakning pastki qismiga qo'zg'aluvchan qilib qamishni o'rurvchi ish jahozi ulanadi.

Qamishni o'rurvchi ish jahozi (3-rasm) korpus 3 ga bog'langan seg-mentli arra 1, ajratkich 2 va uni tutib turuvchi moslama 4, ularni birlash-tiruvchi boltli birikmalardan tashkil topgan.



**3-rasm. Qamishlarni o‘rvuchi ish jihizi.**

1-arra; 2-ajratkich; 3-korpus; 4-tutkich; 5-boltli birikma.

Arrani krivoship-shatun mexanizmi gidromotordan harakat olgan holda ishga tushiradi. Arra pichog‘ining umumiyligi 100 sm, qamishni qirqadigan qismining uzunligi esa 6 sm ga teng. Qirquvchi pichoqlar bir biri bilan  $60^{\circ}$  li burchakni tashkil qiladi. Arranining chiziqli tezligi 37 sm/s bo‘lib, butun uzunligi bo‘yicha 16 ta seksiyaga ega va har bir sekciyaning yuzi  $16 \text{ sm}^2$  ga teng.

Loyihalangan mashina kollektorlaridagi uzunligi 3 m gacha bo‘lgan qamishlarni o‘rib, transport mashinasiga yo’lab beradi va undan sanoatda foydalanish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Imomov, S., Shodiev, E., Tagaev, V., Qayumov, T. Economic and statistical methods of frequency maintenance of biogas plants. IOP Conference Series: Materials Science and Engineering, 2020, 883(1), 012124
2. Olimov, K., Khasanov, I., Imomov, S. Orziyev Mathematical modeling of the technological process of operation and parameters of the device for formation of longitudinal rollers (pawls) between cotton rows. E3S Web of Conferences, 2021, 264, 0407
3. Орзиев С. С, Амруллоев Т.О, Ҳусеров Ў.Ф “Пахта етиштиришда кўндаланг полларни бузиш технологик жараёнларида механизациялаштирилган иш жиҳозини қўлаш” Электронное научно-практическое периодическое издание «Экономика и социум» Выпуск №11(78) (ноябрь, 2020). Сайт: <http://www.newjournal.org/>

<http://www.iupr.ru>

4. Орзиев Сардор Зайтуна Ибрагимова, Сарварбек Меликузиев “ Ирригация тизимларини тозалашда уларнинг лойиҳавий параметрлари бузилишининг олдини олувчи қурилма” Agro ilm – O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi №1. 2021
5. Olimov, Kh.Kh., Juraev, A.N., Imomov, S.J., Orziev, S.S., Amrulloev, T.O., Application of energy and resource engineering software in cotton fields. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 2021, 868(1), 012067.
6. Orziyev.S.S, Amrulloev T.O, Husenov O‘.F. O‘g‘itlarni ekin maydonlariga taqsimlovchi o‘g‘itlash mashinasining ishlash jarayonini asoslash //Қишлоқ ва сув хўжалигининг замонавий муаммолари мавзусидаги анъанавий XXI - ёш олимлар, магистрантлар ва иқтидорли талабаларнинг илмий - амалий анжумани/ Тошкент-2022 йил, 12-13 май
7. F.O.Jo’rayev, Q.I.Ro’ziqurov, S.S.Orziyev // Mineral o’g‘itlarni qo’llash usullari va meyorlar// “Suv va yer resurslari” Agrar-gidromeliorativ ilmiy-ommabop jurnal / 6(17)-son 2022-yil
8. Sh.J.Imomov, S.S.Orziyev, T.F.Murodov // Bioreaktorlarga organik chiqindilarni me’yorlab solishning biogaz chiqishiga bog‘liqligi bo‘yicha sutkalik me’yor miqdorini aniqlash. //“Suv va yer resurslari” Agrar-gidromeliorativ ilmiy-ommabop jurnal / 6(17)-son 2022-yil
9. ziyonet.uz
10. <https://www.google.com>